

## PROFESSOR-O'QITUVCHILARNI PSIXIK IMKONIYATLARI KASBIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI MASALALARI

Bozorov Abdusodiq Abdurayimovich,  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.064>

*Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada professor-o'qituvchilarni psixik holati va uning kasbiy rivojlanishiga ta'siri masalalari yoritib berilgan. Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarning mas'uliyati va kelgusi ishlarida ijtimoiy faolligi uning psixik holati, psixik imkoniyatlarini hisobga olish zarurati haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar. Professor-o'qituvchi, psixik holat, kasbiy rivojlanish dinamikasi, mas'uliyat, ta'lim-jarayoni.*

## ВОПРОСЫ ВЛИЯНИЯ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ПРОФЕССОРА-ПЕДАГОГА НА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ

Бозоров Абдусадик Абдурайимович,  
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Независимый  
исследователь

*Аннотация. В данной научной статье обсуждаются вопросы психического состояния профессоров и преподавателей и его влияние на профессиональное развитие. Представлены научные сведения о необходимости учитывать психическое состояние и умственные способности преподавателей высшей школы, их социальную активность в дальнейшей работе.*

*Ключевые слова. Профессор-преподаватель, психическое состояние, динамика профессионального развития, ответственность, учебный процесс.*

## ISSUES OF INFLUENCE OF PROFESSORS-TEACHERS' MENTAL CAPABILITIES ON THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Bozorov Abdusadiq Abdurayimovich,  
Independent researcher of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

*Annotation. This scientific article discusses the mental state of professors and teachers and its impact on professional development. Scientific information is presented on the need to take into account the mental state and mental abilities of higher education teachers, their social activity in further work.*

*Keywords. Professor-teacher, mental state, dynamics of professional development, responsibility, educational process.*

*Kirish. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda ko'p bosqichli ta'lim, ta'limning yangi dasturlari hamda professor-o'qituvchilardan yangi tajribalar, kasbiy faoliyatining yuqori chuqqilariga erishi kabi xatti-harakatlar borgan sari kuchayib bormoqda. Jahon universitetlar ta'limi oldida rivojlanayotgan globallashuv davri talablariga mos ta'limni takomillashtirish o'quv dasturlari, o'qitish va uning yangi texnologiyalarini kuchaytirish, jahon hamjamiyati barcha ta'lim islohotlarining markazida "yangi" o'qituvchini ko'rishini xohlayotgani bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.*

*Jahon miqyosida Oliy ta'limning universalligini ta'minlash ya'ni kelajak yoshlar uchun ta'lim-tarbiya missiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilarning barcha nerv-psixik imkoniyatlarini o'rganib borish, odamlar farovonligini oshirish, qolaversa, atrof-muhitni muhofaza qilish, ocharchilikka barham berish, murossasizlik, shafqatsizlik, savodsizlik, qashshoqlik va boshqada bir qator zamonaviy ta'limning dolzarb muammolarni bartaraf etishga o'z hissasini qo'sha oladigan yuqori toifadagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning o'rni ham beqiyosdir. Shubhasiz, professor-o'qituvchilarni profesional salomatligi muammosi, uning tadqiqoti dolzarbdir. Oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilari butun jamiyatning ma'naviy va ilmiy salohiyatini shakllantirib beruvchi, olim, o'qituvchi, pedagog, doim ilmiy izlanishda, o'z malakasini oshirish bilan muntazam shug'ullanib boruvchi, kasbiy kamolotiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi[2].*

*Stenford universiteti tomonidan tashkil etilgan "Educational reforms in Russia and China at the turn*

of the 21st century: a comparative analysis” nomli konferensiyada, jumladan, oliy ta’lim boshqaruv tizimidagi o’zgarishlar aksariyat holatlarda texnologiyalar, jamiyat hayotida yuz berayotgan jarayonlar, siyosiy kon’yuktura hamda “yumshoq kuch” ta’sirini kuchaytirish bilan bog’liq ekanligi qayd etilgan[3]. Albatta, bunda professor-o’qituvchilarni hozirgi psixik imkoniyatlaridan kelib chiqish kerakligi nazarda tutiladi.

Respublikamizda mamlakat ravnaqi va kelajagi uchun ta’lim sohasini isloh etishga alohida e’tibor qaratilib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-2909-son qarorida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo’yicha yangilangan davlat oliy ta’lim standartlari va o’quv dasturlari joriy qilish, mehnat bozorida o’z o’rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo’lga qo’yish»[1] ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Oliy ta’lim muassasalaridagi professor-o’qituvchilar salohiyati, kasbiy kamolotini rivojlantirish ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yochimlarni topish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Hozirgi kunda barcha oliy ta’lim tizimida jadal texnik, texnologik innovatsiyalar, fanlar bo’yicha ilmiy nazariyalar, dunyoqarashlarning jadal rivojlanayotgan bir davrda professor-o’qituvchilardan ilmiy izlanishlarga asoslangan yangi ta’limga har tomonlama tayyorgarlikni talab qiladi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2023 yil 2 mayda «Pedagog xodimning maqomi to’g’risida»gi QL-1010-sonli qarori boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishda zamon talablariga mos innovasion modellarni tadbir etilishi oliy ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatayotgan barcha professor-o’qituvchilarga bo’lgan davlatimiz tomonidan ishonch bildirganligini ko’rsatadi. Professor-o’qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar o’z samarasini berishi uchun ham professor-o’qituvchilarimiz o’z ustida ishlash kasbiy bilimlarini rivojlantirish kabi pedagogning kuchli mahoratli innovatsiyalari ko’rsatilib o’tilmoqda. Albatta, bu o’z navbatida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta’lim-tarbiya jarayondagi bir qator erishilgan yutuqlar bilan belgilanadi. Qaloversa, professor-o’qituvchilarni ilmiy salohiyatini oshirish masalalari, ularni xorij tajribalari bilan hamkorligini rivojlantirish masalalari kundalang bo’lib turibdi. Buning uchun professor-o’qituvchilardan sog’lom va kuchli nerv psixikani talab qiladi.

Professor-o’qituvchilarni kasbiy faoliyatni zo’riqishsiz amalga oshadi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Shuning uchun professor-o’qituvchilarning o’z faoliyatidagi zo’riqish holatlarini bartaraf etishga tayyor turishlarini shakllantirish zarur va bunda ko’pincha pedagogik vazifalarni, muammolarni yechish malakasini rivojlantiruvchi maxsus psixologik tavsiyalar va psixotrening mashg’ulotlar, innovasion yondashuvlar borgan sari kuchayib bormoqda. Bugungi kun professor-o’qituvchilari har tomonlama rivojlangan kuchli mutaxassis bo’lishi lozim. Professor-o’qituvchi o’z fan nuqtai nazaridagi bilimlarga ega bo’lishi, malaka va ko’nikmalarini shakllantirib borishi, o’zini namoyon qila olishi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni olib borishi, psixologiya bilimlaridan xabardor bo’lishi, xorijiy tillarni bilishi, kompyuter savodxonligini oshirishi borishi, ijtimoiy tarmoqlarda o’z veb-sayti, “Google Scholar”da (H-index)ini oshirishi, “Scopus”, “Web of Science” xalqaro jurnallarga ilmiy maqolalarni chop etishi, yuqori impakt faktorli xalqaro jurnallariga va mahalliy VAK ruyhatidagi jurnallarga ilmiy maqola, tezislar yozishi, o’quv, uslubiy qo’llanmalar, darsliklarni tayyorlash, chop etishi masalalari bilan shug’ullanishi hamda fan saho yo’nalishi bo’yicha ilmiy salohiyatga PhD va DSc ilmiy darajalari ega bo’lishini talab qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Professor-o’qituvchilarning ko’pchiligi ko’rsatilib o’tilgan ishlar bilan doim band va talaba yoshlarga o’zlarining bilimlarini yetkazib kelmoqda. Shunday bo’lsada, professor-o’qituvchilarni nerv-psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta’siri masalasini ilmiy o’rganib oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Ta’kidlab o’tish joizki, hozirgi kunda professor-o’qituvchilarni nerv-psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta’siri masalasi qator oliy ta’lim universitetlari oldida turgan eng muhim vazifalarni to’liq amalga oshirishda hisobga olinish zarur bo’lgan tomonlaridan biri sanaladi.

Jamiyatimizga yuqori darajadagi kadrlarni yetishtirishda oliy ta’lim professor-o’qituvchilarni hissasi juda katta. Ular, talaba yoshlarga har tomonlama o’rnak bo’la olishi lozim. Professor-o’qituvchilarni kasbiy kamolotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o’rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Ma’lumki, professor-o’qituvchilar psixologiyasini bilmasdan turib ulardan yuqorida ko’rsatib

o'tilgan ilmiy salohiyatni talab qilishimiz qanchalik o'rinli ekan. Respublika miqyosidagi mahalliy jurnallarga ilmiy maqola va tezislar tayyorlash, uni chop etishi professor-o'qituvchidan qancha vaqt talab qilinadi? uning sharoitlari hisobga olinishi kerakmi? Ertanggi bo'ladigan dars mashg'ulotlariga jiddiy tayyorgarlik ko'rishi masalalarini qaysi mezon asoslarida o'rganib borishimiz yoki bu jarayonlarga tayyor psixodiagnostik tashxis quyilishiga qanchalik e'tiborimiz?- bir uylab ko'rish vaqti keldi. Ta'lim jarayonlarida talaba yoshlarning qalbiga yo'l topa olishi uchun ham ulardan psixologik-pedagogik bilimlar talab qilinadi. Talabalar bilan bo'ladigan o'zaro muloqotda kasbiy tajribalaridangina foydalanib yoshlarga yo'l yo'riq ko'rsatishlarimiz bugungi kunda negadir qoniqarsizdek tuyuladi. Professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyati turli-tuman zo'riqish holatlari va faktorlari bilan to'la, o'zida yuqori emosional ta'sirning potensial imkoniyatini olib yuruvchi, o'rtacha qilib olganda o'qituvchining zo'riqish darajasi menejer va bankirlar hamda assosiatsiyalar rahbarlari zo'riqishidan yuqoriroqdir. Bevosita odam (talaba)lar bilan ishlaydigan kasbiy faoliyat sharoiti ko'pincha zo'riqish holatini egallaydi. Bu zo'riqish o'qituvchilarning o'zaro muvofiq harakatlarining ichki mexanizmlari, psixofiziologik qonuniyatlar, ob'yektiv va sub'yektiv shart-sharoitlar, omillar, manbalar ta'siri ostida yuzaga keladi.

L.S.Grechinyevalarning o'z tadqiqotida, o'qituvchilarning kasbiy yonish holatining bosqichlarining miqdoriy ko'rsatkichlarini tahlil qilganda, ta'lim jarayonida o'qituvchilarning 40% shakllanmagan «stress» bosqichida ekanligi, 30 % i «qarama-qarshilik» bosqichida va 83% - «psixologik yonish» bosqichida ekanligini ko'rsatib o'tgan[28].

Psixologiya tadqiqotlarda nerv-psixik holatning yuqori chuqqilarini ingliz tilida shu «Burnout» ya'ni «Yonish» tushunchalari bilan belgilab o'tmoqda, rus tilidagi psixologik adabiyotlarda «Tuyganlik» yoki «Yonish» deb tarjima qilingan atamasi paydo bo'ldi.

V.V. Boyko o'z tadqiqotlarida shaxsdagi psixologik yonish holati to'liq shaklda ishlab chiqilgan psixologik himoya mexanizmi yoki tanlangan psixotraumatikaga javoban his-tuyg'ularni qisman chiqarib tashlashi- deb ta'kidlab o'tgan edi.

V.V.Boyko tomonidan o'rganilgan tadqiqotlarda, umumta'lim maktablar 7300 nafar o'qituvchilaridan 29,4%i yurak-qon tomir tizimi patologiyasining ortish xavfi, 57,8%i oshqozon-ichak traktida buzilishlarga ega ekanligi, miya qon tomir kasalliklari 37,2% da qayd etganligini aniqlab bergan. O'qituvchilarda 60-70% hollarda nevroitik kasalliklar aniqlangan. O'qituvchilar nihoyatda yuqori mas'uliyat uning salomatligiga yaxshigina ta'sirin ko'rsatishini boshqada omillarini ko'rsatib o'tadi. Jumladan ular: ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, uy-joy va fiziologik omillar: ish kuni davomida ko'plab ijtimoiy aloqalar, talabalarni tanlay olmaslik, hissiy bo'shshmaslik, jismoniy harakatsizlik, vizual, eshitish va ovoqli apparatlarga yukning ortishi va boshqalar.

E.E.Сыmanyukning ta'kidicha, muvaffaqiyatli professor- o'qituvchilarning faoliyatiga xos ko'nikmalar, doimiy ravishda o'zgarib boradigan dinamik jarayon sanalaib, u o'z mazmunida kasbiy rivojlanishni ongli boshqarish, o'z-o'zini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlari, kasbiy faoliyatning individual uslubi kabi xususiyatlarni ham qamrab oladi[4].

Oliy ta'lim jarayonlarida professor-o'qituvchilar orasida hissiy charchash o'quv faoliyatiga ta'sir qiladigan dolzarb kasbiy muammo bo'lib hisoblanadi. Hozirga qadar, shaxsning kasbiy faoliyati va bo'lajak sohaga tayyorgarligi masalasi borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda shaxsning turli sohalaridagi imkoniyat va yutuqlari borasida o'ta ahamiyatga ega ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Mazkur masalalar orasida professor-o'qituvchilarning shart-sharoitlari, pedagogik mahorati, kasbiy kompetentlik masalasi alohida ahamiyat kasb etib, ko'plab psixolog, pedagog olimlarning e'tiborini tortib kelgan. Tadqiqotlarda keyingi vaqtlarda o'qituvchining kompetensiyalari ko'rsatilib o'tilgan. Chunki, zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida «kompetensiya» atamasi yangi tushuncha sanalib, unda shaxsning kasbiy faoliyatdagi qator yaroqlilik xususiyatlari o'rin olgan. Mazkur izlanishlar natijasida juda ko'plab ilmiy izlanishlarda bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlik shakllanishining psixologik xususiyatlari masalalar atroflicha o'rganilganligini guvohi bo'lamiz.

Hozirgi davr nuqtai-nazaridan qaralganda, professor - o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya sharoitlariga malakali tayyorlash, o'ta mashaqqatli ish hisoblanadi.

Lebedova O.V. va Povshednaya F.V tadqiqotlarida uzluksiz ta'lim tizimidagi professional faoliyatda o'qituvchining psixologik salomatligi masalalariga tuxtalib o'tgan, ular o'qituvchi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lsa, zamon talablaridagi texnologik yondashuvlarga ega bo'lsa ta'lim jarayonlaridagi psixologik muammolarni bartaraf etishni funksional vazifasida qarab o'tishini keltirib

o'tgan. Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarga berilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlari zamon talablari darajasiga ko'tarilishi maqsadga muvofiqdir. Har bir shaxsning kasbiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ma'lum vaqtlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shaxs xususiyatlari psixologiyada keng o'rganilgan, shunday bo'lsada professor-o'qituvchi shaxsining nerv psixik holatini o'rganish alohida bir yo'nalishni tayinlasa uning kasbiy rivojlanishi, kasbiy kamolotiga erishish masalalarini o'rganish ikkinchi bir tadqiqotlarga yo'l ochib beradi.

Professor-o'qituvchilarni psixik holatini o'rganib borish uchun psixodiagnostik ishlar psixologik xizmat ko'rsatuvchi amaliyotchi psixologlar tomonidan olib borilishi yo'lga quyilishi lozim. Oliy ta'lim tizimida psixologik xizmat turlarini professor-o'qituvchilarga alohida auditoriya, shart-sharoitlari ajratilishini tavsiya qilamiz. Professor-o'qituvchilarni nerv-psixik holatini o'rganuvchi kompleks xizmat turini joriy etishi, nazoratga olishi va olingan natijalar sir saqlanishini ta'minlash kerak. Professor-o'qituvchilarga kasbiy kamolotga erishishiga, mavjud psixologik emosional zo'riqishlarni, charchoqlarning oqibatlarini yumshatish, oldini olishga qaratilgan ilg'or tajribalarini joriy etish ishlari zarurdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида» 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон. -Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2019 йил октябрь, 41-сон (905). Б.10-14.

Горбунов А.П. Роль преподавателя высшей школы в современную эпоху. [http://pglu.ru/upload/iblock/e75/uch\\_2008\\_i\\_00002.pdf](http://pglu.ru/upload/iblock/e75/uch_2008_i_00002.pdf) (дата обращения: 03.08.2018).

Educational reforms in Russia and China at the turn of the 21st century: a comparative analysis. Stanford Library. <https://searchworks.stanford.edu/view/8922793>

Сыманюк Э.Э. Профессионально обусловленные деструкции педагогов // Мир психологии 2004, № 3. С. 202-207.